

# **KORXONA EKSPORT FAOLIYATIDA RISKLAR VA ULARNI MINIMALLASHTIRISHDA ZAMONAVIY YECHIMLAR**

**Azizbek KABULOV,**  
*Biznes va tadbirkorlik Oliy maktabi tinglovchisi*

**Annotatsiya** Ushbu maqola Korxona eksport faoliyatida risklar va ularni minimallashtirishda zamonaviy yechimlar mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, eksport faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning duch keladigan asosiy risklari va ularni kamaytirish usullari tahlil qilinadi. Maqolada eksport risklarini turlariga qarab klassifikatsiya qilish, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va logistika bilan bog'liq xavf-xatarlarni aniqlash va ularga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish masalalari muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari, eksport faoliyatini yanada samarali tashkil etish va risklarni kamaytirish maqsadida ishlovchi mutaxassislar va korxona rahbarlari uchun qimmatli ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** korxona, tashqi savdo, eksport, eksport salohiyati, import, risk, eksport faoliyati risklari, marketing, integratsiya.

## **РИСКИ В ЭКСПОРТНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ И СОВРЕМЕННЫЕ РЕШЕНИЯ ПО ИХ МИНИМИЗАЦИИ**

Данная статья посвящена теме рисков в экспортной деятельности предприятия и современным решениям по их минимизации, в ней анализируются основные риски, с которыми сталкиваются предприятия, осуществляющие экспортную деятельность, и методы их снижения. В статье рассматриваются вопросы классификации экспортных рисков по видам, выявления экономических, политических, правовых и логистических рисков и разработки эффективных стратегий борьбы с ними. Результаты исследований служат ценным источником информации для специалистов и руководителей предприятий, работающих в целях более эффективной организации экспортной деятельности и снижения рисков.

## **RISKS IN THE EXPORT ACTIVITIES OF THE ENTERPRISE AND MODERN SOLUTIONS TO THEIR MINIMIZATION**

*This article is devoted to the topic of risks in export activities of an enterprise and modern solutions to minimize them, and analyzes the main risks faced by enterprises engaged in export activities and methods of their reduction. The article discusses the issues of classifying export risks by type, identifying risks associated with economic, political, legal and logistics, and developing effective strategies against them. The results of the study serve as a valuable source of information for professionals and enterprise leaders working in order to more effectively organize export activities and reduce risks.*

Milliy iqtisodiyotning global bozorlarda muvaffaqiyatli ishlashi uchun eksport faoliyatini rivojlantirish zarur. Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni eksport qilish orqali mamlakatlar o‘z iqtisodiyotini kuchaytiradi, yangi texnologiyalarni joriy etadi, ishlab chiqarish va xizmatlar sifatini yaxshilaydi. Bu esa o‘z navbatida, korxonalar va sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshiradi.

Global iqtisodiyotning zamonaviy sharoitlarida, korxonalar uchun eksport faoliyatining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Tashqi bozorlarga chiqish nafaqat o‘zining mahsulotlarini xalqaro miqyosda sotish imkoniyatini yaratadi, balki kompaniyaning daromadlarini oshirish, raqobatbardoshligini ta’minlash va yangi bozorlarni egallash uchun muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, eksport faoliyatini o‘ziga xos xavf va noaniqliklarni o‘z ichiga oladi. Ushbu risklar, asosan, tashqi bozorlarning o‘zgaruvchanligi, siyosiy va iqtisodiy omillar, valyuta kurslarining o‘zgarishi, xalqaro huquqiy normalar va bojxona tartib-qoidalarining farqliligi kabi faktorlar bilan bog’liq.

Korxonalar uchun eksport faoliyatidagi risklarni boshqarish zarurati, ayniqsa, global raqobatning kuchayishi, bozorlar o’rtasidagi farqlar va iqtisodiy barqarorlikning pastligi sharoitida yanada muhimroq bo’lib qolmoqda. Raqobatbardoshlikni saqlab qolish va muvaffaqiyatli eksport strategiyasini amalga oshirish uchun kompaniyalar risklarni tahlil qilish, baholash va boshqarish orqali o‘z faoliyatlarini yanada samarali tashkil etishlari kerak. Risklarni to’g’ri boshqarish, korxonaning uzoq muddatli barqarorligini ta’minlash, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va imkoniyatlaridan to’liq foydalanish uchun muhimdir.

2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida 28-maqсад qilib “Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026-yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSh dollariga yetkazish. Eksportchi korxonalar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish orqali respublika eksport salohiyatini oshirish. Mavjud imkoniyatlarni to‘liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish. Tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish va mashhur brendlarni jalb qilish. Eksportchi korxonalarga ko‘rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish. Eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 baravar ko‘paytirib, Yevropa davlatlariga GSP+ tizimi doirasida tayyor mahsulotlar eksportini kengaytirish. Mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko‘maklashish tizimini takomillashtirish hisobiga eksportchi korxonalar sonini hozirgi 6 500 tadan 15 000 taga, tovarlarning eksport geografiyasini 115 tadan 150 taga yetkazish. “Yangi O‘zbekiston — raqobatbardosh mahsulotlar yurti” g‘oyasi asosida 200 ta eksportchini ochiq tanlov

asosida saralab, ularni yetakchi eksportyorlarga aylantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash" belgilangan<sup>16</sup>.

Eksport faoliyati – bu korxonaning xalqaro bozor bilan integratsiyasi bo'lib, u tovar yoki xizmatlarni chet elga yetkazib berish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Eksport orqali korxonalar o'z bozorlarini kengaytiradi, qo'shimcha daromad manbalarini yaratadi va global raqobatbardoshlikka erishadi. Ushbu faoliyat milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va valyuta tushumlarining ko'payishida muhim o'rinni tutadi.

Eksport faoliyati boshqa iqtisodiy operatsiyalarga qaraganda murakkabroq bo'lib, uning amalga oshirilishida quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud:

- Xalqaro bozorlar bilan ishslash: Mahsulot yoki xizmatning chet el iste'molchilar talablariga moslashtirilishi lozim.
- Yuqori risk darajasi: Kurs farqlari, bojxona tartibotlari va siyosiy o'zgarishlar eksport faoliyatining barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin.
- Raqobatbardoshlikning oshishi: Chet el bozorlarida raqobat sharoitida korxona mahsulot sifati va narxi bo'yicha afzallik ko'rsatishi kerak.
- Ko'p qirrali jarayonlar: Eksport bilan bog'liq transport, logistika, sertifikatlashtirish, sug'urta va boshqa texnik jihatlar.

Eksport jarayonlari quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Bozor tahlili: Eksport qilinadigan mamlakatdagi talab, raqobatchilar va iste'molchilar ehtiyojlarini o'rganish.
2. Mahsulotni moslashtirish: Mahsulot sifatining xalqaro standartlarga va maqsadli bozor talablariga moslashtirilishi.
3. Narx belgilash strategiyasi: Chegara savdo sharoitlari, transport va bojxona xarajatlari inobatga olinadi.
4. Logistika va yetkazib berish: Mahsulotni belgilangan joyga o'z vaqtida va talablarga mos yetkazib berish.
5. Bojxona rasmiylashtiruvi: Eksport jarayonida bojxona hujjalarni to'g'ri rasmiylashtirish va xalqaro savdo tartiblariga rioya qilish.

### **1.1-jadval**

#### **Eksport faoliyatining asosiy xususiyatlari va jarayonlari<sup>17</sup>**

Jarayon bosqichi	Mazmuni	Xususiyatlari
Bozor tahlili	Iste'molchilar talabi va raqobatchilarni o'rganish	Raqobatbardoshlikni oshirish uchun asosiy qadam
Mahsulotni moslashtirish	Mahsulot dizayni, sifati va o'ramini xalqaro standartlarga moslashtirish	Mahalliy bozordan farqli talablarini qondirish zarur
Narx belgilash	Transport, sug'urta va bojxona xarajatlarini inobatga olgan holda narxni belgilash	Iqtisodiy va raqobatbardosh bo'lish talab qilinadi

<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

<sup>17</sup>Muallif ishlanmasi

Logistika yetkazib berish	va	Mahsulotni transport qilish va mijozga yetkazish	Transport turlari va vaqt omiliga bog'liq
Bojxona rasmiylashtiruvi		Eksport hujjatlarini to'ldirish va rasmiy ruxsatlarni olish	Milliy qonunlarga va xalqaro tartiblarga moslash

Eksport faoliyatining to'g'ri tashkil etilishi korxonaning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Shu sababli, korxonalar nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, balki uning xalqaro bozorda muvaffaqiyatli sotilishi uchun ham zarur bo'lgan barcha omillarni hisobga olishi kerak.

Eksport faoliyati murakkab jarayon bo'lib, u ko'plab tashqi va ichki omillar ta'sirida turli xil xavf-xatarlarni o'z ichiga oladi. Risk tushunchasi iqtisodiy kategoriyada noaniqlik yoki kutilmagan hodisalardan kelib chiqadigan yo'qotishlar ehtimoli sifatida qaraladi. Eksport faoliyatida risklar korxonaning xalqaro bozordagi muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biridir.

Riskning iqtisodiy mazmuni eksport faoliyatida yuqori ahamiyatga ega. U korxonaning xalqaro bozor sharoitlariga moslashishida, resurslarni samarali taqsimlashida va uzoq muddatli strategiyalarni shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Eksport risklari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

- Iqtisodiy risklar: Kurs farqlari, inflyatsiya, xorijiy xaridorlarning to'lovga qobiliyatsizligi.
- Siyosiy risklar: Bozor cheklari, hukumatlarning eksportga oid qonunchilik o'zgarishlari.
- Tabiiy risklar: Tabiiy ofatlar, pandemiyalar yoki fors-major holatlar.
- Texnik risklar: Logistika va transportda kechikishlar, bojxona jarayonlaridagi uzilishlar.

Ushbu risklar eksport faoliyatida korxonaning raqobatbardoshlik va rentabelligiga bevosita ta'sir qiladi. Xususan, eksportdagи noaniqliklar korxonaning bozordagi pozitsiyasini zaiflashtirishi va rejalahtirilgan foyda miqdorini kamaytirishi mumkin. Risklarni samarali boshqarmagan korxonalar quyidagi muammolar bilan duch kelishi mumkin:

- Raqobatbardoshlikning pasayishi: Tovarlarning yetkazib berilishidagi kechikishlar yoki sifatga ta'sir qiluvchi muammolar mijozlar ishonchini pasaytiradi.
- Moliyaviy yo'qotishlar: Xorijiy mijozlar bilan valyuta kurslaridagi o'zgarishlardan kelib chiqadigan zararlar yoki o'z vaqtida to'lovlarning amalga oshmasligi.
- Bozor ulushining qisqarishi: Risklarni oldindan baholay olmaslik korxonani global bozor sharoitlariga moslashishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Risklarni boshqarish korxonaning eksport faoliyatidagi barqarorligini ta'minlash uchun muhim hisoblanadi. Bu jarayonda korxonalar risklarni aniqlash, ularni minimallashtirish usullarini qo'llash va sug'urta mexanizmlaridan foydalanishi zarur.

Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish risklarni nazorat qilishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

### 1.2-jadval

#### Eksport faoliyatidagi asosiy risk turlari va ularning korxonaga faoliyatiga ta'siri<sup>18</sup>

Risk turi	Tavsif	Korxonaga ta'siri
Iqtisodiy risk	Valyuta kursining o'zgarishi, inflyatsiya yoki iqtisodiy turg'unlik	Foyda kamayishi va mahsulot narxining raqobatbardosh bo'lmasligi
Siyosiy risk	Eksport mamlakatida siyosiy o'zgarishlar yoki savdo chekllovleri	Bozorni yo'qotish, xaridorlar sonining kamayishi
Tabiiy risk	Tabiiy ofatlar, iqlim o'zgarishlari yoki pandemiyalar	Yetkazib berishning kechikishi va xarajatlarning oshishi
Texnik risk	Logistika muammolari yoki transportdagi nosozliklar	Buyurtmalarni yetkazib berishda uzilishlar va mijozlarning noroziligi
Huquqiy risk	Xalqaro kelishmovchiliklar shartnomalarda yoki qonun o'zgarishlari	Qo'shimcha jarimalar va yuridik xarajatlarning ko'payishi

Korxonaning eksport faoliyati zamonaviy iqtisodiyotda muhim strategik yo'naliishlardan biri bo'lib, uning samarali tashkil etilishi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Eksport faoliyati orqali korxonalar xalqaro bozorlarga chiqish, raqobatbardoshligini oshirish va qo'shimcha daromad manbalarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, ushbu jarayon o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli iqtisodiy, siyosiy va huquqiy omillarga bog'liqdir.

Eksport faoliyati bilan bog'liq asosiy muammolardan biri risklar hisoblanadi. Ushbu risklar iqtisodiy, moliyaviy, siyosiy va operatsion shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ularni aniqlash, tasniflash va oldini olish mexanizmlarini ishlab chiqish korxonalar uchun muhim vazifa hisoblanadi. Risklarni boshqarish samarali strategiyalarni talab etib, bu jarayonda sug'urta mexanizmlari, huquqiy kafolatlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Risklarni boshqarish uchun tizimli yondashuvlarni joriy etish, masalan, hedjing (risklarni sug'ortalash) metodlarini kengaytirish zarur. Xalqaro bozorlar bo'yicha tahlil va prognozlarni ishlab chiqish, shuningdek, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy risklarni minimallashtirish uchun maxsus boshqaruv tizimlarini yaratish muhim.

Xorijiy tajribalarda risklarni boshqarishning ilg'or usullari qo'llanilmoqda. Masalan, eksportni sug'ortalash, raqamli texnologiyalar va yangi metodlarni joriy etish orqali risklarni minimallashtirish mumkin. Xorijda ishlab chiqilgan yuridik, moliyaviy va marketing strategiyalari O'zbekistonidagi korxonalar uchun ham foydali bo'lishi mumkin. Shuningdek, davlat qo'llab-quvvatlash va maslahat xizmatlari orqali eksport faoliyatini rivojlantirishda katta imkoniyatlar mavjud.

<sup>18</sup> Nazariy ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan

Xorijiy tajribalar asosida yangi usullarni joriy etish va mahalliy korxonalarga eksport risklarini boshqarish bo'yicha maslahat xizmatlarini taqdim etish. O'zbekistonda eksportni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishga ko'proq e'tibor qaratish.

O'zbekistonda eksport faoliyatining o'sishi kuzatilmoqda, lekin bu sohada bir qancha muammolar mavjud. Masalan, texnologik infrastrukturani rivojlantirish, xalqaro bozorlarga moslashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, hamda huquqiy va moliyaviy xizmatalarning yetersizligi eksportning samaradorligini pasaytiradi.

Korxonalar o'rtasida tajriba almashishni tashkil etish va xalqaro bozorlarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritgan korxonalarning metodlarini o'rganish. Eksportsiz mahsulotlar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va texnologik infratuzilmani yangilash zarur.

O'zbekistonda eksport faoliyatida risklarni boshqarishning ayrim jihatlari to'liq rivojlanmagan. Korxonalarda risklarni tahlil qilish va ularga mos ravishda strategiyalar ishlab chiqish uchun zarur infratuzilma mavjud emas. Boshqa muammolar esa savdo shartnomalaridagi noaniqliklar va to'lov tizimlaridagi muammolar bilan bog'liq.

Risklarni boshqarishda professional mutaxassislarni jalb qilish, shuningdek, xalqaro me'yordagi savdo shartnomalarini ishlab chiqish kerak. Eksport faoliyatida yuzaga keladigan to'lov va hisob-kitob tizimlarini optimallashtirish va raqamli to'lov texnologiyalarini kengaytirish zarur.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Abdullayev B.K. Eksport risklarini baholash va boshqarish. – T.: Innovatsiya, 2019. – 220 b.
2. Jo'rayev R.T. O'zbekiston tashqi savdo siyosati va eksport strategiyasi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2018. – 190 b.
3. Toshmatov A.X. Xalqaro savdo va uning rivojlanish tendensiyalari. – T.: Universitet, 2017. – 210 b.
4. Williams D.G. Global Trade and Risk Factors. – London: Palgrave Macmillan, 2020. – 200 p.
5. Anderson T.S. Export Market Development. – New York: McGraw-Hill, 2018. – 180 p.